



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI

TAHLILY SHARH

№1, 2024

**2017–2023–YILLARDA
O'ZBEKISTONNING ISHLAB
CHIQRISH, EKSPORT VA IMPORT
TEXNOLOGIK TUZILMASI TAHLILI**



Aloqa uchun
+99871 239-03-05



Veb sahifa
www.gsbe.uz

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI**

**“YASHIL IQTISODIYOTNI ILGARI SURISH VA JORIY ETISH”
LOYIHA OFISI**

Muallif:

Kostyuchenko Anton Valerevich

1. Kirish

Texnologik jihatdan rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotning yuqori texnologik sektori uning innovatsion faolligini rag‘batlantiradi va shu bilan iqtisodiy o‘shish sifatini belgilaydi. Ushbu sektor mamlakatning iqtisodiy, texnologik va milliy xavfsizligini ta‘minlashga ko‘maklashadi, barqaror iqtisodiy o‘shish uchun zamin yaratadi.¹

Yuqori texnologiyali tarmoqlar qatoriga ishlab chiqarishda *zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darajasi* yuqori bo‘lgan sanoat tarmoqlari kiradi. Ushbu tasnifdagi intensivlik iqtisodiy faoliyatning tegishli turlarida *ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga* (ITTKI) sarflangan xarajatlarning *yalpi qo‘shilgan qiymatga* (YAQQ) nisbati sifatida aniqlanadi..

Ushbu tasnif doirasida sanoat tarmoqlari quyidagi sektorlarga guruhlanadi: *yuqori texnologiyali, o‘rta yuqori texnologiyali, o‘rta past texnologiyali va past texnologiyali*.

2. Jahondagi vaziyat

2.1. Ishlab chiqarish

Jahon banki ma‘lumotlariga ko‘ra, 2021-yilda **yuqori va o‘rta yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish** bo‘yicha yetakchi mamlakatlar (TOP-10) Singapur (qayta ishlash sanoati YAQQning 81,8%), Shveysariya (68,0%), Janubiy Koreya (63,6%), Germaniya (60,6%), Daniya (56,7%), Yaponiya (56,1%), Vengriya (54,6%), Irlandiya (54,4%), Belgiya (53,1%), Niderlandiya (52,5%). Ushbu mamlakatlarning barchasi Jahon banki tasnifiga ko‘ra yuqori daromadli mamlakatlar guruhiga kiradi. Shu bilan birga, mazkur mamlakatlar guruhi bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 2010-yildagi 33,3 foizdan 2021-yilda 37,9 foizga oshdi.

2.1. Eksport

Jahon bankining 2021-yildagi ma‘lumotlariga ko‘ra, qayta ishlash sanoati umumiy eksportida **yuqori va o‘rta yuqori texnologiyali mahsulotlarning** eng yuqori ulushiga ega bo‘lgan 10 ta davlat qatoriga Bermud orollari (88,1%), Filippin (79,9%), Yaponiya (79,9%), Meksika (79,2%), Singapur (76,1%), Vengriya (76,1%), Janubiy Koreya (75,9%), Qatar (74,0%), Germaniya (72,2%), Slovakiya (71,6%) kirgan. Ta‘kidlash joizki, Filippin (daromadi o‘rtacha past bo‘lgan mamlakatlar guruhi) va Meksikadan (daromadi o‘rtacha yuqori bo‘lgan mamlakatlar guruhi) tashqari barcha mamlakatlar yuqori daromadli guruhga kiradi. Shu bilan birga, yuqori daromadli mamlakatlar guruhi bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 2010-yildagi 46,7 foizdan 2021-yilda 47,9 foizga oshgan.

¹ Байнев, В. Ф. История экономики знаний: учеб. пособие / В. Ф. Байнев. – Минск: БГУ, 2021. – 147 с.

3. O‘zbekistondagi vaziyat


3.1. Ishlab chiqarish

Qayta ishlash sanoatining texnologik tarkibini tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2015-2023-yillarda yuqori va o‘rta yuqori texnologiyali sektorlar ulushi 20,7% dan 26,2% gacha oshgan. Shu bilan birga, ko‘rsatkichning o‘shishiga o‘rta va yuqori texnologiyali sektor ulushining 19,0% dan 24,8% gacha o‘shishi hisobiga erishildi.

O‘z navbatida, yuqori texnologiyali sektorning ulushi kuzatilayotgan davrda 1,7% dan 1,4% gacha kamaydi. Bunda ko‘rsatkichning maksimal qiymatiga 2021-yilda - 2,7% ga etgan. (1-diagramma)

Shunday qilib, mamlakatdagi sanoat ishlab chiqarishlarining aksariyati o‘rta past texnologiyali (37,5%) va past texnologiyali (36,3%) sektorlarga hisobiga to‘g‘ri keladi. (1-diagramma)

Mazkur holat ishlab chiqaruvchilar ichki bozorni xalq iste‘moli mollari bilan to‘ldirish va qurilish materiallari ishlab chiqarishga yo‘naltirilganligidan dalolat beradi.




1-diagramma. Qayta ishlash sanoatining texnologik tarkibi (%)

Manba: Statistika agentligi.

3.2. Eksport

O‘zbekiston eksporti tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2023-yilda texnologik eksport 40,7 foizni tashkil etdi. Shu bilan birga, 2015-yilga nisbatan uning ulushi 53,8% dan 13,1 foiz punktga kamaydi. Eksport tarkibidagi bunday holat mamlakat eksportining katta qismini xomashyo mahsulotlari tashkil etishini ko‘rsatadi.

Texnologik eksport tarkibini batafsilroq ko‘rib chiqib, shuni ta’kidlash mumkinki, 2023-yilda yuqori texnologiyali mahsulotlar atigi 2,6% (umumiy eksportning 1,1%), o‘rta yuqori texnologiyali mahsulotlar - 16,4% (6,7%), o‘rta past texnologiyali mahsulotlar - 32,9% (13,4%), past texnologiyali mahsulotlar - 48,1% (19,6%) ni tashkil etdi. (2-diagramma)




2-diagramma. Texnologik eksport tarkibi (%)

Manba: Statistika agentligi ma'lumotlari asosidagi hisob-kitoblar.

3.3. Import

O'zbekiston importi tahlili shuni ko'rsatadiki, 2023-yilda texnologik import 84,6% ni tashkil etdi. Shu bilan birga, 2015-yilga nisbatan bu ko'rsatkich deyarli o'zgarishsiz qoldi - 83,9%. Bu mamlakat korxonalari xomashyo emas, balki texnologik mahsulotlarni ko'proq sotib olayotganidan dalolat beradi.

Texnologik import tarkibini batafsilroq ko'rib chiqib, shuni ta'kidlash mumkinki, 2023-yilda yuqori texnologiyali mahsulotlar 13,8% (umumiy importning 11,7%), o'rtta yuqori texnologiyali mahsulotlar 44,0% (37,2%), o'rtta past texnologiyali mahsulotlar 28,9% (24,5%), past texnologiyali mahsulotlar 13,3% (11,2%) ni tashkil etdi. (3-diagramma)



3-diagramma. Texnologik import tarkibi (%)

Manba: Statistika agentligi ma'lumotlari asosidagi hisob-kitoblar.

4. Xulosa va takliflar

Asosiy xulosalar:

1. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, mamlakatdagi ishlab chiqarishning aksariyati o'rta past texnologiyali va past texnologiyali tarmoqlarga tegishli bo'lib, ularning mahsuloti yuqori bo'lmagan qo'shimcha qiymatga ega.
2. Mamlakatda mashina va uskunalar, avtomobillar, tirkama va yarim tirkamalar ishlab chiqarish mahsulotlariga talab shakllangan.
3. O'zbekiston sanoati texnologik tarkibida chuqur nomutanosibliklar mavjudligi. Ishlab chiqarish sanoatining texnologik tarkibida yuqori va o'rta yuqori texnologiyali sektorlarning ulushi past darajada.
4. Mamlakat texnologik eksportining ulushi past darajada.
5. Yuqori texnologik uskunalarni importi ushbu sohada ishlab chiqarishni oshirishni ta'minlamayapti.

Takliflar:

1. Korxonalarni yuqori texnologiyali yangilashga va yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishga qodir bo'lgan yangi sanoat ishlab chiqarishlarini yaratishga qaratilgan ustuvor loyihalarni amalga oshirish bo'yicha faol investitsiya siyosatini davom ettirish.
2. Tadbirkorlik va investitsiya xatarlarini, eng avvalo, yangi texnologiyalarni tadqiq etish, ishlab chiqish va tarqatish sohalarida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kengaytirish.
3. Ilg'or texnologiyalar bilan jihozlangan yangi yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etishda davlat ishtirokini ta'minlash.
4. Sanoatning texnologik tarkibida yuqori texnologiyali sektorni sezilarli darajada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish.
5. Investitsiya resurslarini qayta ishlovchi yuqori texnologik ishlab chiqarishlar foydasiga qayta taqsimlashga ustuvorlik bergan holda investitsiyalarni sanoat tarmoqlari bo'yicha taqsimlash tuzilmasini transformatsiya qilish.